

## **Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovini o‘tkazish uchun o‘zbek tili va adabiyot fanidan test topshiriqlari spetsifikatsiyasi**

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o‘quv me’yoriy hujjatlarga muvofiq qo‘srimcha, o‘zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

### **1. Test topshiriqlarining qo‘llanishi**

Spetsifikatsiya Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni o‘zbek tili va adabiyot fanidan oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o‘tkazish uchun o‘qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo‘ljallangan.

### **2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar**

– Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va oliy ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;

–Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim uchun o‘zbek tili va adabiyot fanidan takomillashtirilgan o‘quv dasturi, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar;

–O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘ridsida” 2022-yil 2-avgustdagи VM-425-son qarori;

–O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

### **3. O‘zbek tili va adabiyot fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi**

O‘zbek tili va adabiyot fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darjasini bilan birga mantiqiy fikrashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta’limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo‘naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishiladi.

## 1. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	Fan mazmuni tarkibi
	1. O'zbek tili va adabiyot
1.1	<p style="text-align: center;"><b>Fonetika, grafika</b></p> <p>Nutq tovushlari va harf. Unli tovushlar. Undosh tovushlar. Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi. Fonetik hodisalar: so'zlarda tovush ortishi, so'zlarda tovush tushishi, so'zlarda tovush almashishi. Bo'g'in va uning ahamiyati. Urg'u va uning ahamiyati.</p>
1.2	<p style="text-align: center;"><b>Talaffuz va imlo me'yorlari</b></p> <p>Harflar imlosi. Ayrim unlilar imlosi. Ayrim undoshlar imlosi. Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi. Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi. Nutqda o'zgaruvchi undoshlar.</p> <p>Asos va qo'shimchalar imlosi. Qo'shib yozish imlosi. Ajratib yozish imlosi. Bosh harflar imlosi. Chiziqcha bilan yozish imlosi. Ko'chirish qoidalari. Imlo lug'atidan foydalanish.</p>
1.3	<p style="text-align: center;"><b>Punktuatsiya (tinish belgilari)</b></p> <p>Yozma nutqda tinish belgilarining ishlatalishi. Tinish belgilarining nutqdagi ahamiyati.</p>
1.4	<p style="text-align: center;"><b>Leksikologiya</b></p> <p><b>O'zbek tilining lug'at boyligi.</b> So'zning atash ma'nosi. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari. Atamalar (ilmiy atamalar, kasbiy atamalar: iqtisodiyotga oid terminlar, internetga oid terminlar, aniq fanlarga oid terminlar, ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid terminlar). Iboralar. Iboralarning qo'shma so'z va so'z birikmalaridan farqi. Maqollar. Hikmatli so'zlar.</p> <p><b>So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.</b> Sinonimlar. Omonimlar. Antonimlar. Paronimlar. Uyadosh so'zlar.</p>
1.5	<p style="text-align: center;"><b>Uslubiyat</b></p> <p><b>Nutq uslublari haqida ma'lumot.</b> Nutq uslublarining turlari: so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, badiiy uslub.</p>
1.6	<p style="text-align: center;"><b>Morfologiya</b></p> <p><b>So'z tarkibi.</b> Asos va qo'shimchalar. Tub va yasama so'zlar. So'z yasalishi me'yori. Asosdosh so'zlar. Sodda so'zlar. Qo'shma so'zlar. Juft so'zlar. Takror so'zlar.</p> <p><b>So'z turkumlari.. Mustaqil so'zlar. Fe'l so'z turkumi.</b> Fe'lning ma'noviy guruhlari. Harakat va holat fe'llari. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'l nisbatlari. Fe'lning zamon shakllari. Fe'lning mayl shakllari. Fe'lning shaxs-son shakllari. Fe'llarning yasalishi. Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari. To'liqsiz fe'llar.</p> <p><b>Ot so'z turkumi.</b> Otning ma'no turlari. Atoqli otlar. Turdosh otlar. Otning ma'no turlari. Aniq va mavhum otlar. Otning munosabat shakllari (egalik, kelishik, bog'lama). Otlarning lug'aviy shakllari (ko'plik,</p>

	<p>erkalash-kichraytirish). Otlarning yasalishi. Otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.</p> <p><b>Sifat so‘z turkumi.</b> Sifatning ma’no guruhlari. Sifat darajalari. Sifatlarning yasalishi. Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sifatlarning otlashishi.</p> <p><b>Son so‘z turkumi.</b> Sonlarning ma’no guruhlari. Hisob so‘zlari. Sonlarning otlashishi.</p> <p><b>Ravish so‘z turkumi.</b> Ravishlarning ma’no turlari. Ravishlarning yasalishi. Ravishlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.</p> <p><b>Olmosh so‘z turkumi.</b> Olmoshlarning ma’no turlari. Olmoshlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.</p> <p><b>Yordamchi so‘zlar.</b> Ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar va ularning xususiyatlari.</p> <p><b>Undov so‘zlar. Taqlid so‘zlar. Modal so‘zlar.</b></p>
1.7	<p style="text-align: center;"><b>Sintaksis</b></p> <p><b>Gapda so‘zlarning bog‘lanishi.</b> So‘z birikmasi. Teng bog‘lanish. Tobe bog‘lanish. So‘z birikmasi va so‘zlar qo‘shilmasi. So‘z birikmasi va qo‘shma so‘z. So‘z birikmasi va ibora.</p> <p><b>Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.</b></p> <p><b>His-hayajon ishtirokiga ko‘ra gap turlari.</b></p> <p><b>Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari.</b></p> <p><b>Sodda gap. Gap bo‘laklari.</b> Kesim haqida umumiy ma’lumot. Ega haqida umumiy ma’lumot. Egali va egasiz gaplar. Gap bo‘laklari tartibi. Hol haqida umumiy ma’lumot. To‘ldiruvchi haqida umumiy ma’lumot. Aniqlovchi haqida umumiy ma’lumot. To‘liq va to‘liqsiz gaplar. Gapning uyushiq bo‘laklari. Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z. Ajratilgan bo‘lakli gaplar. Kiritmalar (kirish so‘z). Undalma. Gapning uyushiq bo‘laklari, ajratilgan bo‘laklar, undalma va kiritmalar yuzasidan tahlil.</p> <p><b>Qo‘shma gaplar.</b> Kesimlik belgilari. Qo‘shma gap qismlari va ularni bog‘lovchi vositalar. Qo‘shma gap turlari: bog‘langan, ergashgan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.</p> <p><b>Ko‘chirma gapli qo‘shma gap haqida ma’lumot.</b> Ko‘chirma gapli qo‘shma gapning tuzilishi. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirish.</p>

## 5. O‘zbek tili va adabiyot faniga oid kognitiv ko‘nikma darajalari

1.	quyi kognitiv ko‘nikma darajasi	til birliklari (qo‘shimcha, so‘z va gaplar)ning leksik-grammatik xususiyatlarini bilish va tushunish; grammatikaga oid asosiy qoida, tushuncha va atamalarni bilish va tushunish; grammatik qoidalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushungan holda ularni
----	---------------------------------	--

		gapda to‘g‘ri qo‘llash.
2.	yuqori kognitiv ko‘nikma darajasi	<p>o‘rganilgan mavzular bilan bog‘liq leksik birliklarni mantiqiy fikrlagan holda to‘g‘ri qo‘llay olish, gap tarkibida ma’nosini taxmin qila olish mumkin bo‘lgan yangi so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay olish;</p> <p>so‘z turkumlarining grammatik xususiyatlarini tahlil qila olish; matn mazmunini va uning asosiy g‘oyasini tushungan holda ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, o‘xshashlik va farqlarni, voqeа va hodisa sabablarini tahlil qilish;</p> <p>rasmda tasvirlangan voqeа-hodisaning gap mazmuni bilan bog‘liqligini tahlil qilish;</p> <p>tahlil jarayonida berilgan ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish.</p>

## 6. O‘zbek tili va adabiyot fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar

O‘zbek tili va adabiyot faniga oid test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda o‘zbek tili va adabiyot faniga oid fan dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar		Kodi
O‘zbek tili va adabiyoti	Nutqiy kompetensiya	Eslatmalar, gazeta va jurnallardan olingan xabarlar va e’lonlarni tushuna olish.	1.1.1
	O‘qish	Matnlarning hamda badiiy asarlardan olingan parchalarning asosiy mazmunini tushunish, ma’lumotlarni qidirib topa olish, asosiy fikrni ajrata olish va ular bilan ishslash.	1.1.2
		Internet tarmog‘i va boshqa manbalardan olingan matnlar, asbob-uskuna va qurilmalarni ishlatish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha yozma yo‘riqnomalardagi fikrlarni tushuna olish, ma’lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish, bir-biriga bog‘lab xulosa chiqarish.	1.1.3
		Matnning strukturaviy va semantik bog‘liqligini tushunish, tanqidiy fikrlash, asosiy va yordamchi (ikkinchi darajali) g‘oya (fikr)larni, matn maqsadini aniqlash, xulosa qilish va xulosani isbotlovchi asoslarni topish.	1.1.4

Lingvistik kompetensiyasi	Grammatik kompetensiyasi	Savodxonlik	O‘zbek tilining imlo qoidalarini bilish, tovush va harf munosabatini tushunish.	2.1.1
			So‘z tarkibini bilish, so‘zni morfemik tarkibga ajrata olish, tahlil qila olish, asos va qo‘sishimchalarining nutqdagi ahamiyatini tushunish va ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash.	2.2.1
			Mustaqil so‘z turkumlarining grammatik xususiyatlarini bilish, ularning nutqdagi ahamiyatini tushunish, farqlash.	2.2.2
			Yordamchi so‘z turkumlarining grammatik xususiyatlarini bilish, ularning nutqdagi ahamiyatini tushunish, farqlay olish.	2.2.3
			So‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini bilish, tushunish.	2.2.4
			Gap bo‘laklarining grammatik xususiyatlarini bilish, ularning nutqdagi ahamiyatini tushunish va farqlay olish, gapni gap bo‘laklariga ajrata olish, gap tarkibini tahlil qila olish.	2.2.5
			Gaplarning o‘zaro bog‘lanishini tahlil qila olish.	2.2.6
			Tinish belgilaring vazifasini va ahamiyatini tushunish va ularni to‘g‘ri qo‘llash.	2.2.7
	Leksik kompetensiyasi		O‘rganilgan mavzular bilan bog‘liq leksik birliklarni to‘g‘ri qo‘llay olish, keng tarqalgan, kundalik va kasbiy vaziyatlarda ishlataladigan so‘z va so‘z birikmalarini bilish.	2.3.1
			So‘z yasash elementlari, leksik birliklarning ko‘p ma’noliligi, leksik va mantiqiy moslashuv, antonim, sinonim va boshqa umumleksik munosabatlarni bilish.	2.3.2
			Rasm yoki chizma yordamida ifodalangan fikrni tushunib, mos ravishda gap tuza olish va kerakli so‘zlarni qo‘llay olish.	2.3.3

## 7. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to‘ldirish bilan birga):

- 40 ta test topshirig‘i uchun 80 daqiqa.

\*Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-sod yig‘ilishi qarori bilan ma’qullangan.